

TIBBIY MA'RIFAT SALOMATLIKKA XIZMAT QILADI

Mustaqillik yillarida tibbiyotni rivojlantirishga, aholi sog'ligini saqlash, mustahkamlash, davolash ishlariga katta g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Shoshilinch tibbiy yordam xizmati, shifoxonalar, qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, onalar va bolalar sihat-salomatligi muhofazasiga doimo shay skrining markazlari... Bugungi tibbiyotimiz salohiyatini to'liq tasavvurga keltirish uchun bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish kerak bo'ladi.

Shifokorlar, hamshiralar, tibbiyot texnik xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi faoliyat ham talab darajasida olib borilmoqda. Tibbiyot akademiyasi, institutlari, kollejlari o'z sohasining ajoyib mutaxassislarini yetishtirib bermoqda.

O'zbekiston tibbiyot fani esa ilmiy jabhalarda peshqadamlar safida bormoqda.

Umid qilamizki, bu yil ham respublikamiz hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, tibbiyotda katta muvaffaqiyatlarga erishiladi.

2006-yil Prezidentimiz tomo-nidan "Homiyilar va shifokorlar yili" deb e'lon qilingani hamma-mizni quvontirdi. Davlat dasturi ishlab chiqildi. Bu yil respublikamizda ushbu dastur yuzasidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan ko'pdan-ko'p ezgu ishlar rejaga kiritildi. Amaliy ishlar boshlab yuborildi. Butun mamlakatimizda bo'lgani kabi, Navoiy viloyatida ham salomatlikka katta e'tibor berilmoqda.

Biz yaqinda Karmana tuman markaziy shifoxonasida bo'lib, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish qanday amalga oshirilayotgani bilan tanishdik. Tuman markaziy shifoxonasi bosh shifokori, oliy toifali shifokor Yusufjon Ergashev biz bilan suhbatda, jumladan, shunday dedi:

— Karmana tumanida yuz ellikka yaqin shifokor faoliyat yuritayapti. Iqtidorli, izlanuvchan yoshlarimiz ham yetishib kelyapti. Oybuvi Numratova, Abdurahmon Baratov, Ne'mat Murtozo'yev, Zulxumor Sharopova, Muqaddas Po'latova, Oliy Xudoy-nazarova kabi tajribali fidoyilari-miz safidan Mirjon Xushvaqto'v, Ahad Avezov kabi yosh shifokorlar ham o'rin olishmoqda.

Mavridi kelganda, tibbiy ma'rifat darajasi oshib borayotganini ham aytib o'tish lozim, deb o'ylayman. Ilgari o'z sog'ligini o'ylamay, faqat tirikchilik tashvishlari bilan band bo'lib qolganlarni uchratib, afsuslanar edim. Hozir kishilarning dunyo-qarashi butunlay o'zgargan. Yurtboshimiz va davlatimiz g'amxo'rligida, yillar davomida qilingan sa'y-harakatlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Aholi o'rtasida tibbiy madaniyat oshgan, hamyurtlarimiz avvalgiga nisbatan tamo-man yangicha fikrlashmoqda. Kishilar o'z salomatligi qadriga yetishmoqda. Vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tib, shifokorlarimizdan maslahatlar olib turi-shadi. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish odat tusiga kir-moqda. Oilaviy sport, bolalar sporti ommaviylik kasb etmoqda.

— *Ayni kunda shifoxonada qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda?*

— Shifoxonamizda jami 12 ta bo'lim mavjud. 7 ta bo'lim zamonaviy, yangi binolar bilan ta'minlangan. Imkoniyatdan kelib chiqqan holda, qolgan 5 ta bo'limimiz qayta ta'mirlanadi, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlanadi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq shifoxonamizda juda katta qayta qurilish o'tkazilgan. 2005-yilda ham qo'shimcha ravishda qayta qurilishlar bo'ldi.

— *Shifokorlarning tibbiy malakasini oshirish qay yo'sinda amalga oshirilmoqda?*

— Har yili rejali ravishda Toshkent va Samarqand shaharlariga 5-6 nafar shifokorimiz malaka oshirish kurslariga o'qishga boradi. Bundan tashqari, har bir shifokor o'z bilimi va mahoratini doimiy ravishda oshirib borishdan manfaatdordir. Albatta, tilagimiz shuki, bilimli, mohir shifokorlarimiz soni kun sayin ortib borsin. Xalqimiz esa doimo sog'-salomat bo'lsin.

Biz, bosh shifokor suhbatidan keyin boshqa shifokorlar, hamshiralar, ularning xizmatidan bahra topayotgan kishilar bilan ko'rishdik, fikrlashdik. Yana bir marta amin bo'ldikki, yurt tinchligi, obodligi, hayot farovonligi, xalq salomatligi, sog'lom avlodni tarbiyalash sohasida olib borilayotgan ishlar ularning har birini to'qlantiradi, ana shu ezgu jarayonga imkon qadar salmoqli hissa qo'shgilari keladi.

Dildora BOYMURODOVA suhbatlashdi.